



PEDAGOGLARNING KASBIY EHTIYOJLARINI ANIQLASH MALAKASINI OSHIRISH HAMDA TAKOMILLASHTIRISH

Pardaev Zafar Shukurovich

Samarqand viloyat xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish
hududiy markazi o'qituvchisi

Annotation

The quality of education in every age and place has determined the development of the country in social, economic, political, legal and other spheres. This is an important issue for our independent Uzbekistan. Given that the quality of education is directly related to educators, it is important to study, identify, address existing problems, and address the most important issues of their qualifications, experience, skills, knowledge and competencies. should feel that.

Keywords. Knowledge, skills, experience, professional needs, personal-professional development plan, socialization in improving the quality of education.

Ta'linda sifat va samaradorlikni oshirish, ta'minlash barcha davrlar va mamlakatlar uchun har tomonlama rivojlanishning bosh omillaridan hisoblanadi. SHubhasiz, bunda o'qituvchining kasbiy mahorati, tajribasi, malakasiga; mutaxassislik, pedagogika-psixologiya va metodikadan bilim darajasiga, ularni uzlusiz oshirib borishga bog'liq. Bu borada ayrim me'yoriy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ta'limi ahamiyatga ega hujjatlarda fikr, taklif va mulohazalar berilgan. Jumladan:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonidan:

"...Ma'lumki, muallimlar hozirgi vaqtida har 5 yilda malaka oshiradi. Bundan buyon ularning "hayot davomida o'qish" tamoyili asosida o'z malakasini uzlusiz oshirib borishi yo'lga qo'yiladi.

Shuningdek, o'qituvchilarning o'z fanini bilishi, pedagogik mahorati va psixologik tayyorgarligidan kelib chiqib, toifa berish mezonnari ham qayta ko'rib chiqiladi..." (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Parlamentga qilgan to'rtinchchi murojaatnomasidan).

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 6108-sonli Farmonidan:

"...pedagog xodimlarning kasbiy mahorati va faoliyat samaradorligini muntazam oshirib borish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, malaka oshirish tizimini "hayot davomida o'qish" tamoyili asosida takomillashtirib borish..." .

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab quvvatlash hamda usluksiz kasbiy rivojlanish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 4963-sonli Qaroridan:

"...xalq ta'limi xodimlarining malaka oshirish bo'yicha ehtiyojlari o'rganiladi hamda "Uzlusiz kasbiy ta'lim" maxsus elektron platformasi orqali ularning individual kasbiy rivojlanish traektoriyasi tuziladi..." ;

"...an'anaviy malaka oshirish bilan bir qatorda kasbiy o'qitishning uyg'unlashgan, ish jarayoni bilan birqalikda olib boriladigan, masofaviy va boshqa turlari joriy etiladi..." .

YUqorida aytilgan barcha fikrlar pedagoglarning kasbiy malaka darajalari hamda ta'limning sifat va samaradorligini oshirishga qaratilgandir.

SHo'x, pedagogning kasbiy malaka, mahorat, tajribasi qanday aniqlanadi. Agar o'qituvchida sanab o'tilganlar etishmasa yoki o'qituvchining qaysi bir sohada ehtiyoji bo'lsa, u qanday usullarda takomillashtiriladi. SHaxsiy fikr va mulohaza yuritishdan avval, keling tarixga murojaat qilamiz.

Pedagoglarning kasbiy mahorat, bilim va salohiyatini aniqlash (baholash, attestatsiya qilish) fikri



bugungi kundagi kashfiyot emas. Zamonaviy attestatsiya tarixi asrlar davomida shakllanib kelgan. A.A.Bodalyov va V.V.Stolining fikricha, u turli qobiliyatlar, bilim, ko'nikma va malakalarini sinash bilan bog'liq. Bu boradagi dastlabki ishlar eramizgacha 3000 yillik o'rtalarida qadim Vavilondagi bitiruvchilarda sinovlar o'tkazilgan.

Qadim Misrda din peshvolarida bu suhbat olib borish ko'nikmalari, tashqi ko'rinishi, mehnat qilish ko'nikmalari, tinglash, olov, suv bilan sinashdan iborat bo'lgan. Bu sinovlar o'zida ishonchi bo'limgan, ta'limning uzoq muddatiga dosh bera olmaydiganlarni hatto o'ldirish bilan qo'rqtishgan. SHuning uchun har bir nomzodga ibodatxonaga kirishdan avval yaxshilab o'ylab ko'rish tavsiya etilgan.

Bu sinovlar tizimini buyuk olim Pifagor engib o'tgan. Gretsiyaga (YUnionistonga) qaytib, o'zi engib o'tgan qiyinchiliklarga o'xhash sinovlardan o'ta oladigan kishilarni o'zi asos solgan maktabga qo'yan. Pifagor intellektual qobiliyatlarga katta e'tibor bergen. SHuningdek, u yoshlarning kulishi va yurishiga ham e'tibor qaratgan.

Eramizgacha 2200 yil avval qadimgi Xitoyda hukumatning mansabdor lavozimini egallashni hohlovchi kishilar qobiliyatini tekshirish tizimi mavjud bo'lgan. Musiqa, kamondan otish, otda yurish, yozish, hisoblash, marosimlarni o'tkazish bo'yicha har 3 yilda amaldorlar shaxsan imperatorlar sinovidan o'tishgan.

XV asrda sinovlar tartibga solindi. Ular bosqichlar va tur bo'yicha o'tkazilardi. Imtihonda oliy darajalarga erishish hurmatga sazovor bo'lish hisoblanardi.

Bugungi kunda pedagoglarning kasbiy mahorat va malaka darajasini aniqlash, attestatsiya qilishning o'ziga xos maqsadlari mavjud. Attestatsiya davlat va nodavlat ta'lim muassasalarining ishchilarini faoliyat mahsulligini, professionalizmi, malaka darajasini belgilash uchun o'tkaziladi.

Birinchi navbatda attestatsiya mutaxassisning egallab turgan lavozimiga kasbiy muvofiqligini aniqlashga qaratilgan. YOsh mutaxassislarni attestatsiyadan o'tkazish 2-3 yildan keyin amalga oshiriladi. Bunda yosh mutaxassisning egallab turgan lavozimiga mosligi va uning kasbiy rivojlanishini istiqbolli rejalarini nazarda tutiladi.

Umuman, pedagogi qachon yuqori darajada mahorat, malaka, bilim egasi deb aytish mumkin? U qanday omil, usul, vositalar orqali aniqlanadi, namoyon bo'ladi? Qanday o'qituvchi mashg'ulotlarning yuqorida darajada sifatlari va samarali bo'lishini ta'minlay oladi?

Bu kabi savollarni ko'plab keltirish va o'ylab ko'rish har bir davrning asosiy masalalaridan biridir. Jumladan, bugungi kunda "O'zbekiston Respublikasida ta'limning sifat va samaradorligini oshirish uchun qanday dolzarb masala va muammolarni ko'tarish hamda ijobjiy echish mumkin?" – degan savol tug'ilishi tabiiy, albatta, bu masala echimini eng oddiy, sodda muammolar echimini topishdan boshlab, murakkab va qiyin muammolarga echish bilan davom ettirish zarur.

Quyida ushbu masalaga yondoshishning ayrim sodda elementlarini ko'rsatib o'tamiz (umumiyo o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilarida o'rtasida olib boriladigan ta'limiy, tarbiyaviy, tashkiliy masalalar misolida).

Maktab jamoasining har bir xodim bilan qisqa muddatli kasbiy rivojalanish, malaka oshirishga qaratilgan aniq maqsad va vazifalarni belgilab olish. Belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshirish maqsadida o'z ustida shaxsiy nazoratni o'rnatishga erishish, buning uchun ta'sirchan mexanizmlar ishlab chiqish.

Maktab jamoasining har birida ijtimoiy dahldorlik, maktab va unda faoliyat ko'rsatayotgan har bir xodimning muvaffaqiyatidan faxrlanish tuyg'usini shakllantirish: jumladan, "Mening maktabim", "Mening kasbdoshim", "Bu o'qituvchi (etakchi, kutubxonachi, farrosh, qorovul) men bilan bir maktabda ishlaydi", "Bu o'quvchi (bola) mening maktabimda o'qigan (o'qidi, bitirgan)" va hokazo. Ta'lim rivojlangan xorijiy mamlakatlar o'qituvchilarining ish tajribalarini o'rganish, innovatsiya



qilish va bu tajribani kasbiy rivojlanish, ta'lim muassasasi reytingini ko'tarish va boshqa turdag'i muvaffaqiyatlar uchun amaliy faoliyatda qo'llash. SHu orqali bosqichma-bosqich kasbiy rivojlanish va maktab reytingini oshirishga erishib borish.

Muvaffaqiyatning kaliti aniq va puxta reja tuzish hamda shu asosda faoliyatni tashkil etishda ekanligini anglab etish.

Ko'zlangan maqsadlarga erishish jamoa a'zolari kuchini bir joyga toplashga erishish. Jamoa xodimlarining o'zaro, o'z-o'zini nazorat qilish, kasbiy rivojlanish (rivojlantirish), o'zlikni anglash, ijtimoiylashish tuyg'ularini rivojlanish (doimiy, maqsadli).

Har bir xodim uchun rivojlanishning shaxsiy yo'l xaritasini tuzishga erishish, o'zaro va o'z-o'ziga tanqidiy baho berishga odatlanish hamda natijalarni sarhisob qilish, tegishli rivojlanish yo'l xaritasini ishlab chiqish (agar salbiy bo'lsa ijobiya burish, ijobiy bo'lsa rivojlanish).

Maktab jamoasi xodimlarining har bir harakati kasbiy rivojlanish, muvaffaqiyatga erishish, ta'limni rivojlanishga qaratilgan bo'lishi lozim (bu xodimlar uchun kundalik odatga aylanishi kerak).

- Hisobotlar uchun ishlamang;

- Maktab reytingini oshirishning real yo'l xaritasini tuzing;

- O'qituvchi kasbiy mahoratini oshirish, kasbiy rivojlanishning aniq yo'l xaritasini tuzing va h.k.

Agar maktablarda tashkiliy masalalar shu tartibda, qat'iy reja asosida tashkil etilsa va ijrosi ta'minlansa, albatta, natijalar ijobiylar tomoniga o'zgaradi.

Foydalanilgan manbalar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlanish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Parlamentga qilgan to'rtinchи murojaatnomasi.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 6108-soni Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab quvvatlash hamda usluksiz kasbiy rivojlanish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 4963-soni Qarori.